

Date: 27th December-2025

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASI VA TARIXIY-
BADIY DISKURS MUAMMOLARI

Soliyeva Xusnidaxon Hasanboy qizi

University of Business and Science Filologiya fakulteti

Til va adabiyot ta'limi o'qituvchisi

husnida201@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasining shakllanishi, uning nazariy asoslari va kategoriyalari yoritiladi. Diskurs va matn tushunchalarining farqli jihatlari pragmlingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy-badiiy diskursning kommunikativ, ideologik va emotsional xususiyatlari ochib berilib, Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romani misolida tarixiy diskursning badiiy matnda ifodalanish usullari tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari diskurs nazariyasining o'zbek tilshunosligidagi amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: diskurs, tarixiy-badiiy diskurs, matn va diskurs, pragmlingvistika, emotsionallik.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование понятия дискурса в современной лингвистике, его теоретические основы и основные категории. Анализируется соотношение понятий текста и дискурса с позиций прагмалингвистического подхода. Особое внимание уделяется историко-художественному дискурсу, его коммуникативным, идеологическим и эмоциональным характеристикам на материале романа Джавлона Жовлиева «Qo'rqma». Результаты исследования подтверждают значимость дискурсивного анализа для развития узбекского языкознания.

Ключевые слова: дискурс, историко-художественный дискурс, текст и дискурс, прагмалингвистика, эмоциональность.

Abstract: This article examines the development of the concept of discourse in modern linguistics, its theoretical foundations, and key categories. The relationship between text and discourse is analyzed from a pragmlinguistic perspective. Particular attention is paid to historical and literary discourse, including its communicative, ideological, and emotional features, based on the novel "Qo'rqma" by Javlon Jovliyev. The findings demonstrate the practical relevance of discourse theory in contemporary Uzbek linguistics.

Keywords: discourse, historical and literary discourse, text and discourse, pragmlinguistics, emotionality.

Kirish

Zamonaviy yo'nalishlardan biri hisoblangan diskurs hozirgi kunda rivojlanib ko'pgina sohalarda tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Diskursning tarmoqlari va kategoriyalari keng qamrovli bo'lib bormoqda. Z.Rasulov ta'biri bilan aytganda, diskurs



Date: 27th December-2025

bu davrda “tub burilishga” uchradi.⁵ O‘tgan yillarda diskursga yangi paydo bo‘lgan va kognitiv, pragmatik yo‘nalishning asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda edi.

Material va usullar

Qo‘yilgan muammo Tarixiy-badiiy diskursiv tahlilda ochib berildi. Muammoni tadqiq etishda mifologik, qiyosiy-tipologik, ijodiy-genetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natija va ularning tahlili

Hozirgi kunga kelib esa bir qancha tadqiqotlar uning muommolarini, turlarini ochib berish maqsadida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ko‘p tilshunos olimlar diskursni harakat, uzluksiz almashinish, suhbat, “discourse”, lotincha “discursus” so‘zlashish) nutqiy faoliyat jarayoni hamda so‘zlashish uslubi kabi mazmunlarda tushuntirishga harakat qiladi. XX asrning 50-yillarida fransuz olimi E.Benvenist nutq madaniyati sohasida ish olib borib, fransuz tilshunosligida yangi hisoblangan “diskurs” atamasiga “notiq tomonidan tayinlangan nutq” deb o‘zining yangi ta’rifini beradi⁶. Amerikalik olim Z.Harris esa 1952-yilda o‘zining “Discourse analysis” deb nomlangan asarida ushbu “diskurs” atamasini ilk bor tilshunoslik termini sifatida ishlatadi.⁷ Diskursning ta’rifi turlicha ekanligidan uning tarmoqlari ko‘p bo‘lishi aniq edi. Diskurs termini XX asrning 60-yillarida kelib rivojlanadi va o‘rganish yuzasidan keng atama sifatida faol qo‘llanila boshlandi. Diskurs termini vikipediya’dagi ta’rifi quyidagicha bo‘lib, Diskurs⁸ (lotincha *discursus* — “yugurish”, “muhokama”) tilshunoslik, falsafa va sotsiologiyada matnlar, gaplar va ularning kontekstini, ma’nosini, ijtimoiy rolini o‘rganuvchi tushuncha bo‘lib, Vikipediya’da u “so‘zlashuv”, “matn”, “munozara”, “ijtimoiy aloqa” va “ma’no”ni o‘z ichiga oluvchi keng tushuncha sifatida ta’riflanadi, ayniqsa, matnning o‘zi emas, balki uni yaratish, tushunish va qo‘llash jarayoniga e’tibor qaratiladi.

Diskursning sohalari sifatida qaralayotgan siyosiy diskursda evfemizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ilmiy ishida, badiiy diskurs, taom dikursi, publisistik diskurs, baholovchi diskurs kabi turlarini mavjud edi. Tarixiy-badiiy diskurs va uning kategoriyalari haqida ilmiy izlanishlar o‘rganilmagan edi.

Diskurs lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, muhokama ma’nosida qo‘llaniladi.

Jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida diskurs haqida izlanishlarga duch keldik. Anna Markovich fikricha: “Men rus tilidagi qiziqarli hodisalarga e’tibor qaratmoqchiman, ya’ni diskurs va diskurs atama talaffuzidagi farq. “Diskurs” so‘zining etimoni – “discursus” mulohaza, argument, argument deb ta’riflanadi.” Diskurning ta’rifidagi qiziqarli kuzatishlarda omonim so‘z degan qarashlarni kuzatdik. Bir ma’noda harakat bo‘lsa bir ma’noda suhbat turi. Diskurslingvistik atama sifatida suhbatni, nutqni bildiradi. Demak, diskursning muommoli va bahsli bo‘lishi uning ikki ma’nosidan bo‘lishidan. Tilshunoslik fani terminologiyasida “diskurs” tushunchasi fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu yerda nutq “ma’lum bir mavzu bo‘yicha ma’ruzachi tashkil etilgan o‘rgatish

⁵Расулов З. Нуткий тузилмалар ахборот дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик таъминининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида).– Бухоро: “Дурдона”,2022–Б.18.

⁶ Benveniste E. Obshchaya lingvistika [General Linguistics]. Moscow, Progress Publ., 1974. - P.34.

⁷ Harris Z.S. Discourse Analysis: Reprints. «Papers on Formal Linguistics». The Hague, 1952.-P.16.

⁸



Date: 27thDecember-2025

yoki ishontirish orqali aytilgan ijtimoiy nutq” deb tushunilgan. Amerikalik olim Zelig Xarris “diskurs” so‘zini birinchi bo‘lib ishlatgan va bu “jumladan yuqori til” aytgan, ammo uning matnida ham shunday ta‘rif mavjud.⁹ O‘rganishlardan shuni aytishimiz mumkinki, matn va diskurs tushunchalarini bir xil hodisa emas deguvchilarni kuzatdik. Matn statik mahsulotdir, lekin nutq dinamik jarayondir. Bundan tashqari, ular nutq matndan farqli o‘laroq, onlayn rejimda qabul qilish va qayta ishlaydi, bu juda muhim parametrdir. Bizning fikrimizcha ham matn va diskurs tushunchalari bir biri teng birlik emas. “Diskurs yo‘nalishi” deb nomlanuvchi bilishdagi XX asr bosqichida Polsha tilshunosligida paydo bo‘ldi va muloqotning ijtimoiy qiziqishi bilan shug‘ullanar edi.¹⁰ Toyn van Deykning polyak tilidagi birinchi nashri 70-yillarning boshlarida bizning adabiyot jurnalimiz “Pamiętnik Literacki”da paydo bo‘lganida, garchi u ilmiy doiralarda katta rezonans tug‘dirmagan bo‘lsa-da, menimcha, bu bizning tilshunoslik fanining rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Nutq tahlili kabi yo‘nalish deb hisoblangan diskurs haqida Van Deyk nutq tahlili modelining tahlilining yordamining yordamida diskurs lingvistik tendsiya rivojlanishi uchun muhim oqibatlarga olib keldi.¹¹ Diskursning kategoriyalari sifatida propozitsiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura, inferensiya va referensiya kabilarni ko‘rsatish mumkin. Propozitsiya bu gaplarning paradigmatic qayta o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan darak, so‘roq, buyruq, tasdiq kabi invariant ma‘nolaridir. Presuppozitsiya gapni to‘g‘ri qo‘llash va to‘g‘ri anglash uchun so‘zlovchi haqida tinglovchiga oldindan ma‘lim bo‘lgan bilimlar kontekst va vaziyat kabi murakkab elementlardir.¹²

Matnning turgun, tayyor mahsulot, diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab bo‘ladi¹³. Sh. Safarovning ushbu fikri bizningcha, diskurs va matnning aniq farqini ko‘rsatgan. Diskursning tuzilishi va tarkib topishini tadqiq etish maqsadi ko‘zlanganda, e‘tibor matn kogerentligi, qismlar tartibiga va boshqa strukturaviy xususiyatlarga qaratiladi.¹⁴ Zafar Pardayevning ta‘kidlashicha, diskursning strukturasi quyidagi komponentlar tashkil etadi. Kommunikatsiya jarayonida so‘zlovchining ma‘lum bir nutqiy vaziyatda o‘z kommunikativ maqsadidga turli usul va vositalar orqali erishishini diskursning strukturasi tashkil etadi. So‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishi uchun nutqiy strategiyani tuzish va taktikani qo‘llashda, so‘zlovchi fikrlarining ta‘sirchanligini oshirishda baholovchi so‘zlar muhim vosita hisoblanadi.¹⁵

Diskurs atamasining o‘ziyoq ko‘p ma‘noli bo‘lib, u dialog, yaxlit matn, nutqiy asar, nutqning og‘zaki shakli kabi hodisalarni nomlash uchun qo‘llaniladi. Ko‘pchilik holatlarda diskurs tushunchasi kommunikativ voqea, gaplarning ketma-ket bog‘lanishi ma‘nosida

⁹ Xarris Z. Diskurs tahlili // Til. 1952. jild. 28. № 1.

¹⁰ Martin Poprava (Polsha, Vrotslav) Muloqotni integratsiyalashgan gumanitar fan sifatida o‘rganish

¹¹ Tomas Pekot (Polsha, Vrotslav) Toyn van Deyk belgilari kontekstida tilshunoslik va sotsiologiya

¹² Pardayev Z. Pragmalingsvistika. – Samarqand, 2013. – B.31.

¹³ Сафаров Ш. Ирагмалингвистика.. – Toshkent, 2008

¹⁴ Сафаров Ш. Ирагмалингвистика.. – Toshkent, 2008

¹⁵ Сафаров Ш. Ирагмалингвистика.. – Toshkent, 2008



Date: 27th December-2025

ham ishlatiladi¹⁶. N.D.Arutyunovning nazdida diskurs “hayotga singib ketgan nutq” bo‘lsa, Yu.S.Stepanovning fikricha, diskurs ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo‘lgan “til ichidagi tildir”. Zero, diskurs eng avvalo matn ko‘rinishida namoyon bo‘ladi¹⁷

Diskursning oraliq hodisa ekanligi Volgogradlik professorning fikridan ham anglash mumkin: “Diskurs bir tomondan, nutq, muloqot, lisoniy hatti-harakat o‘rtasidagi oraliq hodisadir. Boshqa tomondan esa, u muloqotning qoldig‘i sifatida matnda voqelanadi¹⁸”.

Diskursning tabiati va mohiyati Ye.S.Kubryakova tomonidan aniq tavsiflangan. Olimaning ta‘rificha, diskurs “shaxsning ijtimoiy faolligini aks ettiruvchi va voqelik obrazini mufassal lisoniy tavsiflovchi hamda insonlar o‘rtasidagi muloqotning alohida qismidir. Ushbu hodisa tildan ma‘lum vaqt oralig‘ida foydalanish shaklidir.¹⁹ Diskurslarda mentalitetning turli jihatlari aks topadi, jamoa lisoniy madaniyatining xususiyatlari turli darajada namoyon bo‘ladi. Shu bois, tilshunoslik rivoji uchun diskurs turlarining o‘ziga xos belgi-ko‘rsatkichlari tahlili bilan bir qatorda turli janrdagi diskurslarning o‘zaro munosabati, biridan ikkinchisiga, ko‘chib o‘tish holatlari tavsifi ham muhimdir²⁰”.

O‘zbek tilshunosligida diskurs bo‘yicha salmoqli ishlar olib borildi. Xususan, pragmalingsvistikaning otasi hisoblanmish Sh. Safarov o‘zining Pragmalingsvistika kitobida diskurs bo‘yicha ilmiy ishlar olib bordi. Keyingi davrga kelib Safarovning izdoshlari hisoblangan M.Xakimov, Z.Pardayev, L.Raupova kabi olimlarning o‘z ishlarida pragmalingsvistika birligi bo‘lgan diskurs haqida tadqiqotlar olib borgan. Bugungi tilshunoslikda esa diskurs tadqiqi keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Z.Rasulov o‘zining monografiyasida diskurs tadqiqiga chuqur to‘xtalib o‘tgan. Bundan tashqari N.Ochilova diskursni keng tadqiq etgan.

“Diskurs” tushunchasi hozirgi davr tilshunosligi, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarda keng qo‘llaniladi. Umuman olganda, diskurs bu — ma‘lum bir ijtimoiy, madaniy, siyosiy kontekstda shakllanadigan nutqiy faoliyat va uning mahsulidir. Tilshunos Van Deykning ta‘kidlashicha, diskurs — bu “kontekst ichida ishlovchi til” bo‘lib, u orqali insonlar voqealarni anglaydi, baholaydi, unga munosabat bildiradi. Adabiyotshunoslikda esa diskurs matnning ichki va tashqi qatlamlarini — ya‘ni yozuvchi pozitsiyasi, tarixiy kontekst, ideologik fon, til va obrazlar tizimini o‘z ichiga oladi. Fransuz faylasufi Mishel Fuko esa diskursni hokimiyat va bilim o‘rtasidagi munosabat sifatida talqin qiladi — ya‘ni har bir matn muayyan hokimiyat doirasida muayyan haqiqatni yaratadi va uni tarqatadi. Tarixiy diskurs — bu tarixiy voqealar va shaxslar haqida muayyan ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar asosida badiiy matnda ifoda etilgan nutqiy faoliyatdir. Tarixiy diskursida axborot berish, ishontirish, baholash,

¹⁶ Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. –М.: Прогресс, 1989. – С. 126

¹⁷ Степанов Ю.С. Альтернативный мир. Дискурс. Факт и принцип причинности // Язык и наука конца 20 века. –М., 1995. – С. 44.

¹⁸ Карасик В.И. Языковой круг: личность концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. –С. 276.

¹⁹ Кубрякова Е.С. Язык и знание. –М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 525.

²⁰ Расулов З.И. Нуткий Тузилмалар Ахборот- Дискурсив Мазмуни Шақлланиши Жараёнида Тежамкорлик Тамойилининг Фаоллашуви (Инглиз Ва Ўзбек Тиллари Материали Асосида Монография “Дурдона” нашриёти Бухоро – 2022 23-Б



Date: 27th December-2025

undash, buyurish, maslahat berish, taxmin va bashorat qilish kabi bajaradigan kommunikativ vazifalari hamda ularning tarixiy matnlar ta'sirchanligini oshirish mumkinligi kuzatdik. Adabiy asarda tarixiy diskurs quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- Voqelik va faktlar tasviri (real tarixiy shaxslar, joylar, sana va voqealar);
- Muallifning tarixga bo'lgan yondashuvi (kritik yoki ideallashtiruvchi);
- Estetik talqin va badiiy tafakkur orqali tarixiy haqiqatni qayta yaratish;
- Matn ichida tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, maktublar, xotiralar keltirilishi;
- Tarixiy xotira va milliy o'zlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi g'oyaviy qatlam.

Tarixiy diskurs ikki asosiy mezonda baholanadi:

1. Informativlik — tarixiy faktlarning haqqoniylik darajasi, ularning voqeyi zaminda asoslanganligi.
2. Emotsionallik — tarixiy voqealarning shaxsiy kechinmalar, fojialar, xotiralar orqali berilishi.

Badiiy matnda tarixiy diskurs odatda siyosiy va axloqiy g'oyaviy yuklama bilan birga keladi. Bu yuklama o'quvchiga bevosita emas, obrazlar, ruhiy kechinmalar, syujet orqali ta'sir qiladi. O'zbek adabiyotida tarixiy diskurs XIX asr oxirlaridan boshlab vujudga kela boshlagan. Jadidlar adabiyotida tarixiy voqealar — islohot, ozodlik, ma'rifat g'oyalari bilan uyg'un tarzda ifodalanadi. XX asrda esa bu diskurs sovet mafkurasi doirasida shakllanib, ko'pincha siyosiy senzura ostida rivojlandi. Mustaqillik yillarida tarixiy adabiyotda yangi bir bosqich boshlandi: ilgari taqiqlangan yoki tilga olinmagan mavzular, jumladan, repressiya davri, qatag'on qurbonlari, qochqinlar, diniy va milliy erkinlik uchun kurashgan shaxslar haqida yozish imkoniyati paydo bo'ldi. Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romani ham aynan shunday tarixiy diskursga ega bo'lgan asar sifatida o'zbek badiiy adabiyotida bo'y ko'rsatdi. Emotsionallik — matnda hissiyotlarni uyg'otish, o'quvchida ruhiy holat hosil qilishga xizmat qiluvchi unsurlar. Badiiy adabiyotda hissiyot orqali dramatism, lirizm, estetika shakllanadi. Adabiy psixologiya ham hissiy kechinmalar, ruhiy holat ifodalarini o'rganadi; til nazariyasi hissiyotga oid leksikaning, metaforaning, ritm va tonlama vositalarining roli haqida tushuntiradi. Zamonaviy xorijiy tilshunoslikda diskurs nazariyasi va tahlili murakkab tektologik yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Zamonaviy tilshunoslikning matn tilshunosligi, psixolingvistika, semiotika, kompyuter tilshunosligi, tarjimashunoslik, ritorika, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlari hamda falsafa, sotsiologiya, etnologiya, siyosatshunoslik, yurisprudensiya kabi yondosh fan yo'nalishlarida diskursning umumiy va xususiy ko'rinishlari tahlili olib borilmoqda.

Xulosa

O'zbek tilshunosligida diskurs muammosi bilan bog'liq til faktlarini o'rganish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, bugungi kunda diskurs va uni o'rganish ko'pchilik tilshunoslarning diqqatini tortmoqda. Shuning uchun diskurs bilan bog'liq bir qator izlanishlar olib borilgan bo'lib, bu ilmiy tadqiqotlarda diplomatik diskurs va uning leksik-frazeologik tarkibi, dialogik diskursdagi



Date: 27thDecember-2025

nopredikativ birliklarning sotsiopragmatik jihatlari, tarixiy diskursda qo'llanuvchi bog'lovchi fe'llarning funksional-semantik xususiyatlari, antroponimlarning diskurs relevanti sifatidagi vazifasi monografik planda atroflicha o'rganilgan. Ammo tarixiy diskurs leksik xususiyatlarini o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Diskursning zamonaviy ko'lamda bir necha turlari mavjud bo'lganidek, tarixiy diskursni ham kategoriyalari va turlarini mavjud.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Расулов З.И. Нуткий тузилмалар ахборот- дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида Монография “Дурдона” нашриёти Бухоро – 2022 23-Б
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание. –М.: Языки славянской культуры
- 3 Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. –М.: Прогресс, 1989. – С. 126
4. Степанов Ю.С. Альтернативный мир. Дискурс. Факт и принцип причинности // Язык и наука конца 20 века. –М., 1995. – С. 44.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. –С. 276.
6. Tomas Pekot (Polsha, Vrotslav) Toyn van Deyk belgilarii kontekstida tilshunoslik va sotsiologiya
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NBRz8UC
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFHDy7sC
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA AJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Se3iqnhoufWC